

XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA ZAMONAVIY  
TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

*Elamonova S.N.*

*O'zDJTU 2-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Xoliqova D.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** zamonaviy axborot texnologiyalar, xorijiy tillar, kompyuter, Internet.

**Аннотация:** В данной статье анализируется использование инновационных технологий изучения иностранных языков.

**Ключевые слова:** современное инновационные технологии, иностранные языки, компьютер, Интернет.

**Abstract:** This article is devoted to the importance of using modern innovative technologies in learning foreign languages, especially English.

**Key words:** modern innovative technologies, foreign languages, computer, Internet.

Barchamizga ma'lumki, XXI asr - axborot texnologiyalari davri. Biz hozirgi kunda hayotimizni kompyuter, telefon, noutbuk va shu kabi boshqa qurilmalar hamda Internetsiz tasavvur qila olmaymiz. Biz ushbu qurilmalar orqali har qanday mushkul vazifani osongina hal qilishimiz, shuningdek, kerakli bo'lgan ma'lumotlarni bir necha soniya ichida tezda topishimiz mumkin.

Hozirgi kunda yurtimizda har bir sohada texnologiyalarning o'rni qanchalik muhim bo'lsa, xorijiy tilda erkin so'zlasha oluvchi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ham shunchalik ortib bormoqda. Chunki har bir sohaning ravnaq topishida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va uni tatbiq etishda ular muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun davlatimiz rahbari tomonidan chet tillarini, shu jumladan, ingliz tilini o'qitish tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Biz raqobatbardosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliygoch bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim." – dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.[1]

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari o'qituvchilarga munosib sharoit yaratish, malakasiga qarab ularni rag'batlantirish zarurligini ta'kidladi.[2]

Texnologiyalar rivojlangani sari tillarni mustaqil ravishda o'rganishga bo'lgan imkoniyatlar tobora kengayib bormoqda. Xorijiy tillarni o'rganishning bir necha usullari mavjud. Til o'rganishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samarali usullardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bu o'rganish uslubi o'quvchilarga sezilarli yordam beradi. Buni quyidagi omillar orqali ham bilib olish mumkin:

- kompyuterdan foydalanib, qiziqishlarimizga mos mavzudagi qo'shiq, multfilm kinofilmlar tomosha qilib, chet tilida tinglab tushunish qobiliyatimizni shakllantirishimiz mumkin;

- o'zimizga qulay xohlagan vaqtimizda til o'rganish bilan shug'ullana olamiz;

- pul sarflamasdan vaqtni tejagan holda uyda xorijiy tilni, shu jumladan, ingliz tili o'rganamiz;

- boshqa millat vakillari bilan masofadan turib erkin suhbatlashishga erishamiz;

- Elektron qurilmalar orqali turli davlatlardagi insonlarga xat yozib, yozish ko'nikmamizni rivojlantiramiz hamda fikr almashib, dunyoqarashimizni kengaytiramiz;

- o'zimizga bo'lgan ishonch ortadi;

- axborot resurslardan foydalanib, xohlagan xorijiy tilni o'rganishga oid cheksiz ma'lumotlar manbayiga ega bo'lamiz.

Shunday qilib, axborot texnologiyalaridan unumli tarzda foydalanib har qanday xorijiy tilni mustaqil o'zlashtira olamiz. Buning uchun bizdan faqat doimiy mehnat va o'z ustimizda ishlash talab etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://yuz.uz/uz/news/prezident-xorijiy-tillarni-orgatish-boyicha-kelajak-uchun-mustahkam-poydevor-boladigan-yangi-tizimni-yolga-qoyish-vaqti-soati-keldi>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/05/06/videoselector/>
3. Пармонов А.А. Чет тилини о'rganishda axborot texnologiyalarining ahamiyati / А.А Пармонов.-Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2017. -№4.2 (138.2).-С.39-40.-URL: